SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus son (5-jild)
2025

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

## *№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog‘ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-maxsus son (noyabr, 2025). - 450 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Ismoilov Ubaydulla Mamat oʻgʻli*
SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR
VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI ........ 11-19

*Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna*
OʻZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING OʻRNI ........ 20-24

*Umarov Sardor Yakubovich*
XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA
BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI........ 25-31

*Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich*
AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOGʻLIQ
TOPONIMLAR ........ 32-37

*Olimov Nodirbek Anvarjon oʻgʻli*
QOʻQON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA’LUMOTLAR
(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) ........ 38-41

*Moʻminov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon*
DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI OʻRNI........ 42-45

*Ahmedov Bahodir Ismailovich*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING
TARIXIY BOSQICHLARI ........ 46-55

*Ravshanov Mahmud*
ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI...... 56-59

*Asadova Ra’no Baymanovna*
OʻZBEKISTON VA HINDISTON OʻRTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI
VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI ........ 60-64

*Qurbonova Margʻuba*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI
VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI
(1991–2025 YILLAR TAHLILI) ........ 65-68

*Kamolova Habiba Muhammadiyevna*
SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY
INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI OʻZGARISHLAR ........ 69-74

*Ergashev Umar Kuziyevich*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI GʻUZOR BEKLIGI AHOLISI
TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) ........ 75-79

*Ergashev Akhror*
THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,
AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE
IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE ........ 80-88

*Qurbonov Abbos Shonazarovich*
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH:
YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR ........ 89-93

*Esanova Nilufar*
CHET EL INVESTITSIYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI:
XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 94-97

*Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich*
"MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?"
MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI
NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA) ........ 98-105

*Ismatova Zulfizar*
O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI ........ 106-114

*Abdualimova Durdona Shavkat qizi*
G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI ........ 115-125

*Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna*
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI .... 126-129

*Elboyeva Shaxnoza*
ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA
O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI ........ 130-134

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna*
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI
O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 135-142

*Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li*
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ........ 143-151

*Sharipova Gulchehra Farhod qizi*
IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY
MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE:
IN THE CASE OF JAPAN ........ 152-157

*Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY
INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR ........ 158-162

*Sharopov Nurmuhammad Bobirovich*
DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT:
SUBSIDIYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR ........ 163-166

*Ibragimov Nodir Nusriddinovich*
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK
PROGNOZLASH USLUBLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI ........ 167-174

*Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich*
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ........ 175-179

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Raupova Ra'no Sohibovna*
GLOBALLASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH ........ 180-184

*Mamayusupov Umidjon Kurbanovich*
JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI ........ 185-189

*Ergashev Ozodbek Shavkatovich*
YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI ........ 190-194

*Alimova Shaxnoza Xamidovna*
NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ........ 195-205

*Tolipov Baxtiyor*
YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI 206-211

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI ........ 212-218

*Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna*
RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI ........ 219-225

*Yekubova Mavluda Iskandarovna*
RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK ........ 226-232

*Madraximov Atabek Abduraximovich*
EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI ........ 233-238

*Рахматов Нуриддин Негкадамович*
МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ ........ 239-243

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLI ICHIMLIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOIY SABAB VA OQIBATLARI ........ 244-247

*Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li*
INSON FALSAFASI ........ 248-252

*Baratova Madina Xasanovna*
KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOIY OMILLAR ........ 253-259

*Ismoilov Maxamadixon Isroilovich*
IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI ........ 260-269

*Obidov Asliddin Shavkatovich*
COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS ........ 270-274

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Kaniyazova Jupargul Orinbayevna*
THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH.AITMATOV ............................ 275-280

*Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна*
СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ,
СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ
(НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА) ............................................................ 281-285

*Sanaqulova Fayoza*
REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR ..................... 286-289

*Ruzibayeva Aziza Kahramanovna*
THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY ........................................... 290-293

*Norqobilova Nigora Uralovna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARNING
LINGVOMADANIY SHARTLANISHI ...................................................................................... 294-298

*Ahmedova Fayyoza Rashidovna*
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY,
RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI ................................................................ 299-306

*Elmuratova Zamira Khodjamuratovna*
SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK
AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR ........................................................................ 307-310

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Sultanova Sabohat Alisherovna*
FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY
IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF
"SMART REGULATION" ........................................................................................................ 311-317

*Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING
FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR ..................................................................................... 318-328

*Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ................ 329-339

*Xushvaqtov O'tkir Temirovich*
VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR
PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI ...................... 340-346

*Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova*
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION .................... 347-353

*Normatova Shirin Abdulnabiyevna*
XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY
QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI ......................................................................... 354-362

*Каюмова Асаля Султномуродовна*
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ:
ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ............ 363-368

*Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi*
KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ... 369-377

*Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li*
VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV ............ 378-392

*Amonov Zavqiddin*
ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI ............ 393-400

*Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich*
YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING
JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI ............ 401-405

*Makhmudjanova Mokhirakhon*
ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY.......... 406-411

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ:
ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ............ 412-418

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Utkirov Nusrat*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI-
MODULLI YONDASHUVLAR ............ 419-424

*Jamolova Shahlo Qobilovna*
BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY
TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI
("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR.
VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA) ............ 425-428

*Rasulova Moxidil*
TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR
BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI ........... 429-438

*Ismailov Oybek Abdurasulovich*
ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL
ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY
TA'LIM BERISH ............ 439-445

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI ........... 446-449

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 20 October 2025
**Accepted:** 15 November 2025
**Published:** 30 November 2025

*Article / Original Paper*

# DESCRIPTION AND CLASSIFICATION OF UZBEK NATIONAL CLOTHING

**Ismatova Zulfizar**
Research Intern, Institute of History, Academy of Sciences
E-mail: zulfizarismatova791@gmail.com

**Abstract.** This article comprehensively examines the origin, development, and socio-cultural significance of Uzbek national clothing. Based on archaeological findings, wall paintings, miniatures, and written sources, the research traces the historical evolution of Uzbek garments from prehistoric times to the early 20th century. The article provides a classification of clothing according to social status, gender, age, season, region, and ceremonial functions.

**Keywords:** Uzbek national clothing, material culture, ethnography, archaeological findings, miniature, Timurid period, paranji, kamzul, textile production, clothing classification.

# O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI

**Ismatova Zulfizar**
Fanlar akademiyasi Tarix instituti stajyor-tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek milliy kiyimlarining kelib chiqishi, shakllanish jarayoni hamda ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqot davomida arxeologik topilmalar, devoriy rasmlar, miniatyuralar va yozma manbalarga tayangan holda o'zbek kiyim-kechaklarining tarixiy taraqqiyoti miloddan avvalgi davrlardan 20-yuzyillik boshlarigacha izchil tahlil etilgan. Maqolada kiyimlarning ijtimoiy tabaqalanish, jins, yosh, mavsum, hudud va marosimlarga ko'ra tasnifi berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek milliy kiyimlari, moddiy madaniyat, etnografiya, arxeologik topilmalar, miniatyura, Temuriylar davri, paranji, kamzul, to'qimachilik, kiyim tasnifi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N17

**Kirish.** Kiyim inson tomonidan yaratilgan va ishlab chiqarilgan moddiy buyum bo'lib, uning mehnati va ijodining samarasidir. U nafaqat inson ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi, balki jamiyat madaniyatining muhim elementi, milliy an'analarni namoyon etuvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Kiyim moddiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, uning moddiy qiymati inson hayotida bajaradigan vazifalari bilan belgilanadi.

Kiyimlar inson tanasini tashqi muhit ta'sirlaridan — sovuq, issiq, shamol, yomg'ir va boshqa omillardan himoya qilish vazifasi bilan birga, u insonning tashqi ko'rinishini go'zallashtiradi, estetik ehtiyojlarni ham qondirishi lozim. Har qanday libos nafaqat amaliy jihatdan qulay bo'lishi, balki insonning shaxsiy uslubini, didi va madaniyatini ham aks ettirishi zarur.

Inson kiygan libosi orqali o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi, millati, hatto dinini ham ifodalab beradi. Masalan, bayram yoki motam marosimlarida kiyiladigan liboslar insonning kayfiyati va hayotiy holati haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, har bir hududning kiyimlari o'sha yerning iqlim sharoiti, iqtisodiy ahvoli va madaniy an'analari bilan bog'liq. Shu jihatdan

kiyim insonning yashash tarzi, fikrlash usuli va jamiyatdagi oʻrni haqida maʼlumot beruvchi muhim ijtimoiy belgi hisoblanadi.

Milliy kiyimlar har bir xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va estetik didi bilan bogʻliq holda shakllangan. Ular asrlar davomida avloddan avlodga oʻtib kelayotgan madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. Oʻzbekiston hududida tarixiy davrlar mobaynida koʻplab xalqlar, urugʻ va qabilalar yashagan. Ular oʻz urf-odatlari va turmush tarzini ifodalovchi kiyimlar orqali tarixda iz qoldirgan. Bu kiyimlar nafaqat amaliyotda, balki etnografik tadqiqotlarda ham muhim manba vazifasini oʻtaydi.

Maʼlumki, har bir xalqning moddiy madaniyati va turmush tarzi uzoq tarixiy jarayonlar davomida muayyan oʻzgarish va rivojlanish bosqichlarini boshdan kechiradi. Oʻzbek xalqi moddiy madaniyati, xususan, milliy kiyimlari ham ana shunday tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan. Shu bilan birga, anʼanaviy xalq kiyimlari barcha tarixiy oʻzgarishlarga qaramasdan, oʻzining milliy, etnik xususiyatlari va oʻziga xos anʼanaviy uslubini asrab qolgan.

Milliy kiyimlarda saqlanib qolgan ushbu oʻziga xoslik oʻzbek xalqi maʼnaviy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, turli tarixiy davrlarda hududimizda yashagan etnik guruhlar va elatlar oʻrtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalar natijasida milliy liboslarda umumiylikka oid koʻplab belgilar ham vujudga kelgan. Bu esa oʻz navbatida, xalqlar oʻrtasidagi madaniy uygʻunlik va tarixiy aloqalarning yaqqol ifodasi sifatida talqin etiladi [5].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Etnologiyada kiyimlarni tasniflashda uning vazifasiga, kiyish maqsadiga va boshqa omillarga koʻra bir necha turga boʻlish mumkin:

Kishining yoshiga qarab: Kiyimlar bolalar, kattalar va keksalar uchun alohida moʻljallangan boʻlib, har bir toifadagi odamlar uchun maxsus kiyimlar shakllangan.

Insonning jinsiga mos holatda: Erkaklar va ayollar kiyimlari oʻrtasidagi farqlar jinsga xos xususiyatlar va anʼanalarga asoslanadi.

Kiyinish maqsadiga qarab: Kiyimlar bayram, marosim, kundalik yoki ish kiyimlari kabi maqsadlarga moslab shakllangan. Bu kiyimlarning turli holatlarga mosligi ijtimoiy va madaniy hayotning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy holatiga muvofiq: Boylar va kambagʻallar kiyimlari oʻrtasidagi farq ijtimoiy tabaqalarning holatini ifodalaydi. Bunday tasniflash kiyimning ranglarida, materiallarida va bezaklarida aniq namoyon boʻladi.

Hududiy va tabiiy-iqlim sharoitiga qarab: Toʻgʻri kiyim tanlashda insonning yashash joyi (togʻliklar, dasht hududlari, shahar va qishloqliklar) va tabiiy-iqlim sharoiti katta ahamiyatga ega. Har bir hududdagi kiyimlar oʻziga xos shart-sharoitlarga moslashgan.

Mavsumga mos tarzda: Bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki kiyimlar mavsumga mos ravishda tanlanadi. Bu kiyimlar odamlarining tanlash davriga bogʻliq boʻlib, har bir mavsum uchun maxsus kiyimlarning shakllanishini taʼminlaydi [5]. Yana bundan tashqari kiyimlarni bosh kiyim, ustki kiyim, ichki kiyim va oyoq kiyimlarga ham ajratishimiz mumkin.

Kiyimlar inson tarixida muhim ijtimoiy va madaniy funksiyani bajargan va hozirgi kunga qadar oʻzining muhim ahamiyatini saqlab kelgan. Tadqiqotchilarning fikricha, kiyimlarning paydo boʻlishida bir necha omillar oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Dastlabki kiyimlar insondagi uyalish hissiyoti, yaʼni tabiiy xolda yoki jismoniy holatda oʻzini boshqalardan himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shuningdek, kiyimlar insonning talablari va tanani bezash niyatidan ham paydo boʻlgan.

Arxeologik qazilmalar va tadqiqotlar natijasiga koʻra, kiyimlarning paydo boʻlishi inson taraqqiyotining eng qadimgi davrlariga, taxminan 40-25 ming yil ilgariga borib taqaladi. Boshlangʻich davrlarda odamlar tabiatning turli ta’sirlaridan, xususan, hayvonlar va hasharotlardan himoyalanish maqsadida tanalarini tuproq, loy yoki moy bilan yopishgan. Bu jarayonda kiyimlar birinchi navbatda tabiiy muhitdan himoya qilish vazifasini bajargan.

Keyinchalik, bu surtmalarga oʻsimlik boʻyoqlari qoʻshilib, insonlar tanalarini turli shakl va ranglarda bezashni boshlashgan. Bu holat kiyimlarning moddiy vazifasining rivojlanishiga olib kelgan. Aynan tananing boʻyalishi va tatuirovka qilishni kiyimning dastlabki shakllari sifatida koʻrish mumkin. Bu jarayonda tatuirovkalar va tananing boʻyogʻi kiyimning madaniy ahamiyatini oshirish vazifasini bajargan.

Shuningdek, odamlar oʻz tanalarini turli koʻrishda bezash uchun hayvonlar patlarini, tishlarini, suyaklarini va hatto sochlarni ham ishlatgan. Bular faqat estetik koʻrinishga xos boʻlib, balki insonning ijtimoiy maqomini, ramziy vazifalarni bajargan va koʻpincha tananing himoyalanishiga xizmat qilgan. Bu elementlar bir vaqtning oʻzida tananing koʻrkamligini oshirgan va insonlarning madaniy qadriyatlarini namoyon qilgan.

Buning natijasida kiyimlar faqat himoyalash emas, balki insonning ijtimoiy hayotida ham muhim oʻrin tutishni boshlangan. Aynan kiyimlar orqali insonning ijtimoiy maqomi, turmush tarzi va madaniy xosliklari koʻrsatilgan [6].

**Muhokama va natijalar.** Inson kiygan kiyimi orqali nafaqat tashqi koʻrinishini, balki ichki didi, madaniy saviyasi va xarakterini ham ifoda etadi. Inson tanlagan libos orqali uning dunyoqarashi, kayfiyati, hatto ruhiy holati haqida ma’lumot olish mumkin. Masalan, rasmiy va qat’iy liboslar jiddiylik va vazminlikni, yorqin va ajralib turadigan kiyimlar esa joʻshqinlik yoki ijodkorlikni ifoda qilishi mumkin. Sovuq rangdagi kiyimlar odamda jiddiy taassurot qoldirsa, yorugʻ va oddiy ranglar odamni iliq qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Kiyimning paydo boʻlishi inson tarixi kabi qadimiydir. Ibtidoiy jamoa tuzumidagi odamlar tabiatning ta’siridan himoyalanish va jinsiy tartibni saqlash maqsadida turli tabiiy vositalardan foydalanishgan. Dastlab daraxt barglari, poyalar, hayvon terisi va yunglari kabi vositalar tanani yopishda ishlatilgan. Bu jarayon, avvalo, biologik ehtiyoj asosida boshlangan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan ijtimoiy koʻrinishlarga aylandi.

Ijtimoiy hayot va mehnat faoliyati rivojlangan sari kiyim ham takomillashib bordi. Ilk gazlamalar turli oʻsimlik tolalaridan, hayvon yunglaridan toʻqila boshlangan. Bunday oddiy gazlamalar inson tanasiga oʻrab yuriladigan shaklda boʻlib, keyinchalik tikish texnologiyalari paydo boʻlishi bilan aniq shakl va uslublarga ega boʻldi. Bu jarayon inson ongining oʻsishi, jamiyatdagi ijtimoiy rollarning farqlanishi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Oʻzbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyimlari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi qadimgi kishilar kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoitlari va urugʻ-qabila an’analari asosida shakllangan. Oʻtmish ajdodlarimizning kiyim-kechagi, ularning shakllari va evolyutsiyasi hamda mahalliy xususiyatlari toʻgʻrisida respublika hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, devoriy rasmlar, haykalchalar, mayda naqshlar, yozma manbalar, qoʻlyozma kitoblarga ishlangan rang tasvirlar birmuncha aniq tasavvurlar beradi [4].

Kiyimlar va toʻqimachilik san’ati inson tarixida muhim oʻrin tutadi. Kiyimning dastlabki shakllari toʻqimachilikning paydo boʻlishi bilan bevosita bogʻliqdir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Turon hududida toʻqimachilikning paydo boʻlishi tosh asrining ilk neolit davriga

borib taqaladi. Bu davrda insonning toʻqimachilik bilan bogʻliq birinchi qadamlari eng muhim tarixiy voqea hisoblanadi.

Xususan, Koppetogʻ yetaklarida aniqlangan Jaytun madaniyati yodgorliklarida toʻquv dastgohlarining izlari topilgan. Jaytun qazilmalarida eng koʻp topilgan buyumlardan biri marjonlar boʻlgan. Marjonlar qabila a’zolari orasida ommaviy bezak buyumlari sifatida keng tarqalgan va ularning madaniy ahamiyati yuqori boʻlgan.

Qabr qazilmalaridan topilgan materiallar ham bu fikrni tasdiqlaydi, ya’ni Jaytun madaniyatidagi insonlar kiyimlar va boshqa buyumlarni teri va terini qayta ishlash san’ati bilan ishlagan. Shuningdek, teri faqat kiyimlar uchun ishlatilmagan, balki turli sumkalar, qutilar va boshqa kundalik buyumlar ham teridan tayyorlangan. Bu davrda terini ishlashning ancha rivojlanganligi va uning turli vazifalarda qoʻllanilishi Turon xalqlarining madaniy va texnik taraqqiyotini koʻrsatadi [10].

Miloddan avvalgi II ming yillikka oid kiyim qoldiqlari Sopollitepadan topilgan va bu topilmalar oʻsha davrda yashagan aholi kiyimlarini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Garchi bu madaniyatga oid arxeologik materiallar orasida kiyim qoldiqlari juda oz boʻlsa-da, mavjud boʻlgan topilmalar qishloq aholisining kiyinish uslubi haqida ma’lum tasavvur berishi mumkin.

Sopollitepa hududida topilgan qabr qoldiqlari orasida qizil va toʻq rangli, junli va ipak matolardan tayyorlangan kiyim boʻlaklari mavjud. Bu, oʻz navbatida, oʻsha davrda kiyimlarning materiallarining xilma-xilligi va sifatiga e’tibor qaratilganligini koʻrsatadi. Ipak va jun matolari nafaqat kiyimlarning nafisligi va jozibadorligini, balki savdo aloqalari orqali boshqa hududlardan olib kelingan materiallarning mavjudligini ham anglatadi. Bu esa oʻsha davrda iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Kiyimlarning tikilishi haqida gapirganda, arxeologik tadqiqotlar bronza ignalari yordamida kiyimlarning tikilganini koʻrsatadi. Bu esa oʻz navbatida, oʻsha davrda kiyim tikish texnologiyasining yuksak darajaga yetganini anglatadi. Bronza ignalarining ishlatilishi esa materiallarning sifatini, ular bilan ishlashni osonlashtirish va kiyimlarning uzoq muddat xizmat qilishini ta’minlash maqsadida qoʻllanilganligini koʻrsatadi.

Shuningdek, kiyimlarni bogʻlash uchun tosh tugmalarining ishlatilgani ham oʻsha davr kiyimlarining amaliy jihatlarini koʻrsatadi. Tosh tugmalar kiyimlarning mustahkamligini ta’minlash bilan birga, estetik jihatdan ham oʻziga xos va zamonaviy uslubda ishlatilgan boʻlishi mumkin. Ustki kiyimlar uchun esa bronza ignali tokchalar ishlatilgan. Bu, oʻz navbatida, kiyimlar orasida bezak va amaliy oʻzgarishlarni aks ettiradi va bu davrda kiyimlarni yanada jozibador qilish uchun turli detallar qoʻshilganligini koʻrsatadi.

Sopollitepadan topilgan kiyim qoldiqlari, shu bilan birga, oʻsha davrda qishloq aholisining kiyinish uslubi va madaniyati haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytiradi. Bu topilmalar nafaqat materiallar va texnologiyalarni, balki oʻsha davr jamiyatining kundalik hayoti, iqtisodiy aloqalari, savdo hamda madaniy almashuvlarini ham aks ettiradi. Kiyimlarning shakli, materiallari va ishlab chiqarish usullari orqali biz ularning turmush tarzini yaxshiroq tushunishimiz mumkin [3].

Ilk oʻrta asrlarga oid devoriy rangtasvirlar va qoʻlyozma rasmlar (miniatyuralar) orqali oʻsha davrda yashagan ajdodlarimizning kiyim-kechaklariga oid muhim ma’lumotlarni olish mumkin. Bu tasviriy manbalar orqali liboslarning turli shakllari, hududiy xususiyatlari, ishlatilgan mato turlari va bezak uslublari haqida tasavvur hosil qilinadi. Ayniqsa, Afrosiyob,

Panjikent, Varahsha, Bolaliktepa, Xolchayon kabi arxeologik yodgorliklarda topilgan devoriy rasmlar bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Bolaliktepa yodgorligidan topilgan topilmalar diqqatga sazovor boʻlib, ular orqali biz turkiy xalqlarning qadimgi turmush tarzi, san’ati, diniy e’tiqodlari va kiyinish madaniyati haqida koʻplab ma’lumotlarga ega boʻlishimiz mumkin. Ushbu yodgorlikdagi kiyim tasvirlarida keng yengli, uchburchak shaklli, ba’zida esa ochiq yoqali va oʻziga xos bezaklarga ega liboslar tasvirlangan.

Ayollar koʻpincha yengsiz, tizzadan bir oz balandroq ustki kiyimda aks ettirilgan boʻlib, ichidan esa keng yengli, sargʻish yoki qizgʻish rangli ichki kiyim kiygan holda tasvirlangan. Bu liboslar orqali biz oʻsha davr odamlari qanday matolardan foydalangani, libos shakllari va ularning ijtimoiy hayotdagi oʻrni haqida chuqurroq tushunchaga ega boʻlamiz [7].

Devoriy rasmlar va arxeologik topilmalar ilk oʻrta asrlardagi kiyim-kechak madaniyatining rivojlanganligini koʻrsatadi. Ayniqsa, Tohariston hududidan topilgan dalillar asosida bu davr kiyimlarining ijtimoiy tabaqalanishga bogʻliq boʻlganligini kuzatish mumkin. Masalan, badavlat erkaklar ipak matolardan tayyorlangan, hashamatli chakmon kiygan boʻlsa, oddiy aholining erkaklari oq boʻz matodan tikilgan soddaroq kiyimlarga ega boʻlgan. Ayollar liboslarida ham tabaqalanish aniq koʻrinadi: zodagon ayollar qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, nafis ipak koʻylaklar kiyganlar.

Tohariston aholisi orasida keng yoyilgan kiyim shakli yelkasi yopishgan, etagi esa kengayib boruvchi (trapetsiyasimon) libos boʻlgan. Bu liboslar koʻproq yengsiz tikilgan, ayrim hollarda esa keng yengli koʻrinishda boʻlgan. Liboslarning yon tomonida yirtma (qiyiq) qismi, yon yoqasi mavjud boʻlgan. Ushbu detallarning aksariyati keyingi asrlarda ham uzluksiz davom etgan. Masalan, 19-20-yuzyillik boshlarida boshlarida ayollarning doʻppi ustidan kiyiniladigan nimchalari yoki erkaklarning beldan pastki qismi keng liboslarida bu tarixiy shakllarning takrorlanishi kuzatiladi.

Bu kabi shaklning uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi, bir tomondan, xalq urf-odatlarining barqarorligini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, liboslarning kundalik hayotga mosligi, amaliy qulayligi bilan bogʻliqdir. Bundan tashqari, diniy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning liboslar orqali ifodalanishi, ularning shakli va bezaklarida oʻz aksini topgan [7].

Tarixdan ma’lumki, ilk marotaba Mugʻ togʻidan topilgan soʻgʻd yozuvidagi hujjatlar bilan birga turli matolar boʻlaklari topilgan boʻlib, bu matolar 8-yuz-yillikning birinchi choragiga tegishli ekanligi haqida ma’lumot beriladi. Mugʻ togʻidan topilgan ashyolar ichida yoʻl-yoʻl toʻn kiygan xushbichim chavandoz tasviri aks etgan qalqon ham topilgan boʻlib, chavandoz toʻnidagi ingichka qizil yoʻllar sariq tag uzra tushgan. Mugʻ togʻidan topilgan mato parchalari ichida toʻq qizil rangning oq va yashil ranglar bilan oʻzaro uygʻunligida boʻyalgan junli matoning yagona namunasi mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa oʻsha davrda yoʻl-yoʻl mato kamyob boʻlganligini koʻrsatadi. Mashhur arab tarixchisi Maqdisiy Turon hududidan qoʻshni mamlakatlarga chiqilgan mollar toʻgʻrisida yozar ekan, yozma manbalarda ilk marotaba 10-yuzyillikda Turondan olib ketilgan mahsulotlar ichida yoʻl-yoʻl gazlamadan tikilgan Xorazm choponlari ham boʻlganligi haqida ma’lumot beradi [4].

Oʻrta asrlar davridagi oʻzbek xalqining milliy kiyim-kechaklarini oʻrganishda tasviriy manbalar, xususan, miniatyura asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. 12-yuzyillik oxiri – 13-yuzyillik boshlarida yaratilgan miniatyuralardagi obrazlar oʻsha davrdagi kiyimlar shakli, tarkibi va bezak xususiyatlarini oʻrganish uchun bebaho manba hisoblanadi. Ushbu manbalarda

tasvirlangan erkak va ayollar odatda dumaloq shakldagi, oʻziga xos keng etakli kiyimlar kiygani koʻzga tashlanadi. Bunday kiyimlarda old qismi qisqaroq, orqa qismi esa uzunroq boʻlib, asimmetrik tuzilishi bilan ajralib turadi.

Miniatyuralarda erkak va ayol liboslari tashqi koʻrinishida oʻxshashlikka ega boʻlsa-da, ular oʻrtasida muayyan farqlar mavjud. Ayollar kiyimlarining yengi pastga qarab kengayib borgan boʻlib, nafislik va uygʻunlikka e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ular tomonidan keng toʻgʻri bichimdagi uzun yubkalar yoki yoyilma lozimlar keng tarqalgan. Erkaklar esa bilakka yopishib turuvchi yengli kiyimlar va pocha qismi uzun sholvorlarni afzal koʻrishgan. Bu turdagi kiyimlar amaliyotga mos va harakatda qulay boʻlgan.

Bosh kiyimlarga kelganda, miniatyuralarda aks etgan obrazlarda koʻpincha erkaklar boshiga salla oʻragan holda tasvirlangan. Bu salla nafaqat tashqi koʻrinish, balki ijtimoiy maqom sifatida ham xizmat qilgan boʻlishi mumkin. Askarlar esa oʻz kiyimlari ustiga sovut — ya’ni temirdan yoki qattiq matodan tayyorlangan himoyaviy zirh kiyganlari bilan ajralib turadi.

Shu tariqa, miniatyura asarlari oʻrta asr oʻzbek kiyimlarini oʻrganishda vizual ma’lumot manbai sifatida alohida oʻrin tutadi. Ulardagi tasvirlar orqali nafaqat kiyimlar shakli va matosini, balki uning ijtimoiy, estetik va amaliyotga doir ahamiyatini ham tahlil etish imkoni yaratiladi. Bu esa milliy kiyimlarimiz tarixi va taraqqiyotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi [1].

15-19-yuzyillikdagi Hirot va Buxoro maktablariga mansub musavvirlar tomonidan yaratilgan miniatyura asarlari oʻzbek milliy kiyimlarini oʻrganishda muhim tasviriy manba sifatida ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan san’at namunalari orqali tarixiy va madaniy oʻzgarishlarni ham kuzatish mumkin. Shu munosabat bilan, miniatyuralar nafaqat san’at tarixi, balki etnografiya va moddiy madaniyatni oʻrganish sohalari uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar natijalariga koʻra, 12-19-yuzyilliklar davomida Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari, jumladan, oʻzbeklar an’anaviy ravishda tunikasimon — ya’ni toʻgʻri yoqali koʻylaklarni keng qoʻllashgan. Bunday koʻylaklar shaklan sodda, lekin turli tabaqa vakillarining ehtiyojlariga moslashgan holda ishlangan. Ular kiyim majmuasining asosiy qismi hisoblangan. Shu bilan birga, 15-yuzyillik miniatyuralarida tasvirlangan Turon xalqlarining liboslari 19-yuzyillik oxiridagi oʻzbek va tojik xalqlarining kiyimlariga yaqin oʻxshashliklar kasb etgani diqqatga sazovor. Bu holat uzoq tarixiy davr mobaynida kiyim an’analarining barqarorligi va ayrim shakllarning izchil saqlanib qolganligini koʻrsatadi.

Shunday qilib, 15-19-yuzyilliklardagi miniatyuralar nafaqat rasmiy san’at namunalari, balki madaniy va etnografik ma’lumotlarning ishonchli tasviriy manbasi sifatida ham qaralishi zarur. Ularda aks etgan kiyim-kechak elementlari orqali xalqimizning kundalik turmushi, ijtimoiy tuzilishi va hashamdorlikka boʻlgan munosabati haqida boy ma’lumotlarga ega boʻlish mumkin [4].

14-yuzyillikning birinchi choragidan boshlab Turon hududiga Moʻgʻul istilosi orqali moʻgʻul-xitoy madaniyatining turli jihatlari, jumladan, kiyim-kechak an’analari ham zoʻrlik bilan kiritilgan. Bu ta’sir, ayniqsa, hukmdorlar, saroy xodimlari hamda shahar aholisi orasida keng tarqaldi. Moʻgʻul-xitoy uslubidagi kiyimlar asosan oʻng koʻkrak tomondan bogʻlanadigan, kalta yengli, yon tomonlari bel barobarida ochiq va koʻkrak qismi kashta bilan bezatilgan shaklda boʻlib, 14-yuzyillikdagi kiyim uslublarining umumiy belgilarini oʻzida mujassam etgan.

Bu davrdagi ayollar ustki kiyimlari keng, oldi ochiq va nihoyatda uzun boʻlib, yeng qismi pastga qarab kengayib boradigan qilib tikilgan. Bunday shakllar nafaqat estetik talablarga, balki muayyan an’analarga ham mos kelgan.

14-yuzyillikning ikkinchi choragidan boshlab moʻgʻul-xitoy libos shakllari bosqichma-bosqich mahalliy uslublar tomonidan siqib chiqarildi. 15-yuzyillikga kelib, Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida, milliy kiyimlar rivojida yangi bosqich kuzatildi. Bu davrda erkaklar va ayollar orasida avra-astarli, ya’ni ikki qatlamli (ichki va tashqi) liboslarni turli xil rangda ustma-ust kiyish odati urfga kirdi. Ushbu uslub ham amaliy, ham zebozak jihatdan yuqori baholangan.

Temuriylar davrida Samarqand, Hirot, Sheroz kabi madaniy markazlarda mahalliy an’analar asosida ishlangan, sodda, ammo rang-barang va jozibali liboslar shakllandi. Bu kiyimlarda hunarmandchilikning yuksak darajasi, mato va bezak texnologiyasidagi taraqqiyot ham oʻz ifodasini topgan. Shu tariqa, 14-15-yuzyilliklardagi siyosiy oʻzgarishlar va madaniy ta’sirlar oʻzbek xalqining milliy kiyimlariga toʻgʻridan-toʻgʻri ta’sir koʻrsatgan va ularning shakllanishiga turli bosqichlarda ta’sir etgan [8].

Temuriylar hukmronligi davrida (14-15-yuzyilliklar) Turon jamiyatida roʻy bergan ulkan siyosiy, madaniy va ma’naviy oʻzgarishlar aholining turmush tarzi bilan bir qatorda, milliy kiyim-kechak an’analarini ham jiddiy ravishda shakllantirdi va takomillashtirdi. Bu davrda jamiyatda ilmiy va diniy sohalarda yuksalish kuzatilib, allomalar, ulamolar va davlat amaldorlari singari yuqori tabaqa vakillari oʻrtasida muayyan kiyim turlari odat tusini oldi.

Aynan Temuriylar davrida Movarounnahrda paranji koʻrinishidagi uzun, keng va tanani toʻliq berkituvchi libos turi keng tarqaldi. Qizigʻi shundaki, bu davrda “paranji” atamasi faqatgina ayollar emas, balki erkaklar tomonidan ham ishlatilgan. Ya’ni, “paranji” soʻzi ma’lum bir shakldagi ustki kiyimni anglatgan boʻlib, uning qoʻllanishi aniq bir jins bilan bogʻliq boʻlmagan. Bu holat kiyimning faqat shaxsiy ehtiyoj yoki ijtimoiy maqom belgisi emas, balki muayyan madaniy qoidalar va estetik qarashlarni ham aks ettirganini koʻrsatadi.

Mazkur davrdagi kiyimlar nafaqat shakl va mato jihatidan, balki odob-axloq va jamiyatdagi burchlar bilan bogʻliq ma’naviy ifodalarni ham oʻz ichiga olgan. Paranji turidagi kiyimlarning keng tarqalishi — jamiyatdagi umumiy islomiy va ma’naviy ruhiyatning, shuningdek, amaldorlar va ulamolar tabaqasining ta’sirini yaqqol aks ettiradi [9].

Shayboniylar sulolasi hukmronligi davriga kelib, paranji ma’lum ijtimoiy tabaqalar, xususan, ilm ahli va diniy soha vakillari tomonidan kiyiladigan ustki kiyim sifatida keng qoʻllanila boshladi. Bu davrda paranji jamiyatdagi muayyan maqom va burchni ifodalovchi kiyim sifatida qabul qilingan boʻlib, u shaxsning ilmga va ma’rifatga daxldorligini bildirardi. Paranji faqatgina tanani berkitish vositasi emas, balki insoning diniy va ma’naviy qarashlarini, jamiyatdagi maqomini ifoda etuvchi madaniy belgilardan biriga aylangan.

Vaqt oʻtishi bilan, ya’ni keyingi tarixiy bosqichlarda paranji yangi mazmun va vazifalar bilan boyidi. Ayniqsa, ayollar orasida u tashqariga chiqishda kiyiladigan maxsus ustki kiyim sifatida shakllandi. Bu transformatsiya jamiyatdagi ayollarning roli, diniy-axloqiy qarashlar va ijtimoiy me’yorlarning oʻzgarishi bilan bogʻliq holda kechgan. Shunday qilib, paranji shakl jihatidan saqlangan boʻlsa-da, uning funksional va ijtimoiy ahamiyati davrlar oʻtishi bilan turlicha tus olgan.

Paranjining mazkur evolyutsiyasi Turon kiyimlar tarixi va madaniy oʻzgarishlarni oʻrganishda muhim ahamiyatga ega boʻlib, u orqali jamiyatdagi diniy va madaniy jarayonlarni kuzatish mumkin [4].

17-18-yuzyilliklar davrida Markaziy Osiyo hududida milliy an’analar asosida shakllangan kiyim-boshlar oʻzining oʻziga xos rivoj bosqichini boshdan kechirdi. Avvalgi asrlarda mavjud boʻlgan liboslar shaklini asrab qolish bilan birga, ularda mahalliylik belgilarini yanada aniq ifodalovchi uslublar ham shakllandi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Xorazm, Fargʻona, Toshkent, Qarshi, Shahrisabz kabi shahar va hududlarda kiyimlar mahalliy xususiyatlarga ega boʻlgan, oʻziga xos an’anaviy koʻrinishdagi turlari bilan ajralib turgan.

19-yuzyillikning oxiriga kelib, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishi, shuningdek, Chor Rossiyasi tomonidan oʻlkaning mustamlaka qilinishi natijasida Turon hududiga fabrikada tayyorlangan mato va tayyor kiyim-kechaklar kirib kela boshladi. Bu holat milliy kiyimlar shakli va uslubiga sezilarli ta’sir koʻrsatdi. An’anaviy keng, uzun, yaxlit bichimli, tanani toʻliq berkituvchi va toʻkilib turadigan liboslar bilan bir qatorda, kiyimning koʻkrak qismida burma (koketka) tikilishi bilan ajralib turuvchi va inson qomatiga mos ravishda tikiladigan murakkab bichimli yevropacha koʻylaklar ham tarqala boshladi.

Bu yangi shakldagi liboslar shahar aholisi, ayniqsa, savdogarlar va mahalliy elita qatlami oʻrtasida kengroq tarqaldi. Shu tariqa, 19-yuzyillikning oxirlarida milliy kiyimlar nafaqat oʻz an’anaviy asosini saqlab qoldi, balki tashqi ta’sirlar natijasida turli uslubiy oʻzgarishlarga ham uchradi. Bu jarayon mahalliy va tashqi madaniy ta’sirlar oʻzaro uygʻunlashgan holda kechganligini koʻrsatadi [4].

19-yuzyillik oxiri va 20-yuzyillik boshlariga kelib, Markaziy Osiyo hududida milliy ustki kiyimlar ichida *kamzul* (yoki *kamzur*) keng tarqalgan va odat tusini olgan. Kamzul an’anaviy kiyimlar tizimida belni ushlab turadigan, tik yoqali, badanga yopishib turadigan, nimchani eslatuvchi uzun ustki kiyim sifatida shakllangan. U, odatda, qora rangdagi matolardan – satin, kastyumbop ip gazlama yoki shox kabi qalin matolardan tikilgan va koʻylak yoki chopon ustidan, ayrim hollarda esa yoz faslida choponsiz ham kiyilgan.

Kamzulning turlari jamiyatdagi tabaqalanish, mavsumiy ehtiyoj, mato turi va yosh-holatga qarab nomlanib, ular turli funksional va estetik vazifalarni bajargan. Masalan, *paxtali kamzul* kundalik va sovuq havoda kiyish uchun moʻljallangan boʻlsa, *baxmal kamzul* koʻproq tantanali holatlarda va bayramlarda kiyilgan. Shuningdek, *avra kamzul*, *kamzulcha*, *uchbel kamzul*, *beshbel kamzul*, *duxoba kamzul* kabi nomlangan koʻrinishlarining har biri ayrim belgilar bilan ajralib turgan: ularning farqi koʻproq bel qismidagi burmalar soni, mato qalinligi va bezaklar orqali namoyon boʻlgan.

Kamzul nafaqat amaliy ahamiyatga ega boʻlgan, balki muayyan ijtimoiy maqom va estetik qarashlarni ham aks ettirgan. Ushbu kiyim turining keng tarqalishi 19-yuzyillik oxirida milliy kiyimlarda sodir boʻlgan zamoniylashuv va uslubiy boyish jarayonlarining yorqin misoli sifatida qaralishi mumkin [2].

**Xulosa.** Umuman olganda, 20-yuzyillik boshlariga kelib, oʻzbek xalqiga xos milliy kiyim-bosh majmuasi oʻzining toʻla shakllangan, barqaror tizimiga ega boʻlgan holatga yetib keldi. Bu majmua asrlar davomida shakllangan an’analar, mahalliy iqlim, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va tashqi madaniy ta’sirlar bilan uygʻunlashgan holda rivojlangan boʻlib, erkak va ayollar kiyimining barcha turlari – bosh kiyimlardan tortib poyabzalgacha boʻlgan elementlarni qamrab olgan.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Ashrafiy M. O‘rta Osiyoda o‘rta asrlardagi liboslar: taraqqiyot bosqichlari (VII – XVII asrlar) // San’at. - № 3.
2. Asomiddinova M. Kiyim kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Asqarov A.A. Sopollitepa. – T.: Fan, 1973.
4. Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an’anaviylik va zamonaviylik. “Yangi asr avlodi”, 2006.
5. Ibragimova M.Yu. Surxondaryo vohasi aholisining an’anaviy kiyimlari va taqinchoqlariyu (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Toshkent. 2004.
6. Rahmatullayeva D, Xodjayeva U, Ataxanova F. Libos tarixi. – T.: «Sano-standart» nashryoti, 2015.
7. Албаум Л.И. Болаликтепа. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
8. Горелик М.В. Среднеазиатский мужской костюм на миниатюрах XV – XIX вв. – Москва: Наука, 1979.
9. Лобачева Н.П. Почему мусулманьки носили паранджу // Наука и религия. – 1970. - № 12.
10. Массон В.М. Поселение Жайтун. – Л., 1971.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).